

KORYES VA INGLIZ TILLARIDAGI FONETIK TAFOVUT; INGLIZ TILIDAN KOREYS TILIGA KIRIB KELGAN SO'ZLARNI TALAFFUZ QILISHDAGI MUAMMOLAR

Jumaniyazova Feruza Iskanderovna

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

feruza_8787@bk.ru

ANNOTATSIYA

Koreys tilida mayjud bo'lgan tovushlar Ingliz tilida bo'lmasligi yoki aksincha, ingliz tilidagi tovushlarning koreys tilida bo'lmasligi natijasida fonetik interferentsiya yuz beradi. Interfetentsiya hodisasini ikki tildagi intonatsiyaning har xil bo'lishi bilanham izohlash mumkun. Bu muammolar koreys tilini ingliz tiliga transliteratsiya qilish usuli bilan murakkablashadi. Ko'pincha ingliz tilidan koreys tiliga o'zlashtirilgan inglizcha so'zlarning talaffuzida koreys tilidagi fonetik tovushlar bilan almashish xolatlari ko'p uchraydi va bu ingliz tovushlarini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: fonetik interferentsiya, intonatsiya, transliteratsiya, talaffuz

АННОТАЦИЯ

Фонетическая интерференция возникает в результате того, что звуки, присутствующие в корейском языке, отсутствуют в английском языке или, наоборот, английские звуки отсутствуют в корейском языке. Явление интерференции можно объяснить разной интонацией двух языков. Эти проблемы усугубляются тем, как транслитерируется корейский язык на английский. Часто в произношении английских слов, переведенных с английского языка на корейский, много случаев обмена с корейскими фонетическими звуками, и мы проанализируем эти английские звуки.

Ключевые слова: фонетическая интерференция, интонация, транслитерация, произношение.

ABSTRACT

Phonetic interference occurs as a result of the sounds that are exist in Korean not in English or, conversely, English sounds not existing in Korean. The phenomenon of interference also can be explained by the different intonation of the two languages. These problems are compounded when Korean is transliterated into English. When the pronunciation of English words transferred from English to Korean, there are many cases of exchange with Korean phonetic sounds, and we will analyze these English sounds.

Keywords: phonetic interference, intonation, transliteration, pronunciation.

KIRISH

Odamzot turli xil tovushlarni eshitib farqlash va tanib olish singari universal qobiliyatga ega. Biroq, ma'lumki, bu universal tovushni tanib olish qobiliyati inson yoshligidan ona tili ta'sirida bo'lgan va alohida tillarga sezgir bo'lgan maxsus tovushni tanib olish hodisasiga aylanadi (Juszczyk, Cutler, & Redanz (1993)), Best (1994), Best, McRoberts, Lafleur, & Silver-Isenstadt (1996)).

Ona tili fonemasiga moyil bo'lgan tovushlarni tanib olish hodisasi katta yoshdagi tinglovchilar uchun yaxshi rivojlangan bo'lib, katta yoshdagi tinglovchilar o'z ona tili tovushlarini aniq ajrata oladilar, lekin boshqa tillarning o'ziga xos tovushlarini aniq ajrata olmaydilar, ba'zan esa ular ona tilining tovushi o'xshash, ammo farqi aniq bo'lgan fonema bilan aralashib ketadi. Bu hodisa fonologik filtr fenomeni sifatida ham ta'riflangan (Trubetzkoy, 1939).

Birinchi va ikkinchi til o'rtasidagi fonologik qarama-qarshilikni misollar asosida ko'rib chiqamiz, bu turli xil tovushlarni aniqlash hodisalari bilan bog'liq.

Koreyslar ingliz tilini o'rganishda ko'plab talaffuz muammolariga duch kelishadi. Koreys tilida mavjud bo'lgan tovushlar Ingliz tilida bo'lmasligi yoki aksincha, ingliz tilidagi tovushlarning koreys tilida bo'lmasligi natijasida yuz beradi. Shuning bilan bir qatorda, ikki tildagi intonatsiyaning har xil bo'lishi bilanham izohlash mumkun. Bu muammolar koreys tilini ingliz tiliga transliteratsiya qilish usuli bilan murakkablashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shuningdek, hozirgi global texnikalar asrida koreys tilida koreyscha talaffuz bilan ko'plab inglizcha so'zlar qo'llanilmoqda, va ular ko'plab bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Talabalar ko'pincha ingliz tilidan koreys tiliga o'zlashtirilgan inglizcha so'zlarning koreyscha talaffuzini to'g'ri talaffuz deb qabul qilishadi.

Masalan, /f/, /v/, /ð/, /θ/ va /z/ tovushlari koreys tilida uchramaydi. Shuning uchun koreyslar bu tovushlarni almashtirishga moyil ya'ni, /θ/ uchun /s/ [ʃ], /ð/ uchun /d/ [d̥], /z/ uchun /dʒ/ [dʒ], /f/ uchun /p/ [p, p̥] va /v/ tovushining o'rniga so'z boshida /b/ [b̥] tovushlari talaffuz qilinadi. Shunday qilib, masalan, *ingliz tilini boshlang'ich o'rganuvchilar* "The zebra has fine thighs and thick veins" jumlasini "De Jebra has pine sighs and sick beins" deb talaffuz qiladi. Bundan tashqari /f/ tovushli inglizcha so'zlar koreys tiliga transliteratsiya qilinganda, ular ғ (/p/) yoki ҳ (/h/) dan foydalanadilar. Bu ingliz tiliga qayta aylantirilganda chalkashlikka olib keladi.

Koreys tilida, undoshlarning ketma – ket qo'llanilish xolati yuz bermaydi, shuning uchun koreyslar so'zlarga qisqa unli tovushlarni qo'shishga moyil bo'ladi. Misol uchun, "crisps" so'zi koreys tilida 5 bo'g'in bilan 크리스프스 [keu-ri-seu-peu-seu] tarzida beriladi.

Koreys tilida /r/ va /l/ tovushlari yo'q bo'lib uning o'rniga 'ㄹ', ingliz tilidagi /r/ va /l/ tovushlarning o'rtasidagi koreyscha tovush ishlatiladi, va bu ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'zlarni talaffuz qilishda qator qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Ingliz tilida so'zlasguvchilar koreys tilidagi bitta 'ㄹ' tovushini ingliz tilidagi /r/, ikkita 'ㄹ' tovushini /l/ tovushi deb qabul qilishadi va bu talaffuzham unchalikham to'g'ri deb hisoblanmaydi. Koreyslarning /r/ va /l/ tovushlarni chalkashtirishi katta xatoliklarga sabab bo'lishini qator misollar orqali ko'rish mumkun. Masalan, ingliz tilidagi «pray» va «play» so'zlari bir xil «play» deb talaffuz qilinish xolatini ko'rishimiz mumkun.

Bundan tashqari, Koreys tilida uchramaydigan ingliz tilidagi undoshlar ketma ketligi koreys tiliga ingliz so'zlari o'zlashtirilganda fonetik interferentsiyaga sabab bo'ladi. Bunga misol qilib, /i:/ uzun talaffuz qilinadigan tovushni olsak bo'ladi. 'He leaves with his family' jumlesi 'He lives with his family' jumlesi bilan birhil talaffuz qilinishi kuzatiladi. Yana misol keltiradigan bo'lsak, ingliz tilidagi /ə/ (schwa) shovqinli tovushi koreys tilida uchramaydi, va koreyslar 'sofa' so'zida 'o' /əʊ/ tovushining o'rniga koreys tilida bor bo'lgan /æ/ talaffuz qilishga moyil. Shuningdek, Koreyslar ingliz tilidagi diptonglarni 2 unli tovushga aylantirish orqali talaffuz qilish orqali muammoni bartaraf etishga harakat qilishadi, masalan, "Hi" (ହି) "Ha-i" ga aylanadi. Koreys tilida so'zlar /tʃ/ bilan tugamaydi, shuning uchun koreyslar bu tovushdan keyin qo'shimcha unli tovush qo'shishga moyildirlar, masalan, 'sandwich' 샌드위치 'sandwichi' ga aylanadi.

Oxirgi paytda Koreya hukumati tomonidan qo'llaniladigan transliteratsiya tizimiga nisbatan o'zgarishlar kiritildi va bu Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun katta chalkashlikka sabab bo'ldi. Masalan, koreys tilidagi 'ㅂ' ingliz tilida 'p' deb talaffuz qilingan bo'lsa xozir 'b' deb talaffuz qilinishi keltirilgan. 'ㅂ' ingliz tilidagi 'b' ga yaqin bo'lgani bilan bir xillikdan tashqari chiqqan xolatlarni kuzatish mumkun. 부산 shaxrini "Pusan" deb talaffuz qilingan bo'lsa kiritilgan o'zgarishlarga asosan "Busan" deb talaffuz qilinishi talab qiladi. Lekin Busan shaxridagi universitet xaligacha PNU (Pusan National University) – Pusan Davlat Universiteti nomi bilan o'zgarishsiz qoldirilgan. Shunga oxhshash'ㄱ' k deb talaffuz qilinib, xozir 'g' deb transliteratsiya

qilinadi. Lekin Koreyada keng tarqalgan 김 (Kim) familiyasi xaligacha “Gim” deb qattiq tovush bilan emas balki “Kim” deb talaffuz qilinadi va bu koreys tilini o’rganayotgan chet elliklarga qiyinchiliklar tug’diradi.

Ko’pgina inglizcha so’zlar koreys tilining bir qismiga aylandi, ammo talaffuzida katta o’zgarishlar mavjud. Masalan, ingliz tilidagi ‘sauna’ so’zi koreys tilida "sa-oona" deb talaffuz qilinadi. Va ko’pincha bu noto’g’ri talaffuz deb xisoblanadi.

Koreys tilini o’rganayotgan xorijliklar uchun eng katta muammolardan biri bu 5 ta qo’sh konstantalar, masalan, ‘ㅂ’ va ‘ㅌ’. Boshqa tilda so’zlashuvchilarining quloqlariga ular bir xil eshitiladi, lekin koreys tilidan katta farq qiladi. Yana bir muammo shundaki, 4 ta unli tovush (ㅂ, ㅍ, ㅋ, ㅌ) mavjud bo’lib, ular ingliz tilida so’zlashuvchilar uchun bir xil eshitiladi (garchi ular qo’sh undoshlarga qaraganda muloqotda kamroq muammolarni keltirib chiqaradi).

XULOSA

Xulosa qiladigan bo’lsak, to’g’ri talaffuzni o’rganish ingliz tilini o’rganayotgan koreyaliklar va koreys tilini o’rganayotgan xorijliklar uchun asosiy muammolardan biridir. Fonetik interferentiyaga sabab bo’ladigan asosiy sabablardan biri bu koreys tilida mavjud bo’lgan tovushlarning ingliz tilida mavjud bo’lmasligi, yoki aksincha holatlardir.

REFERENCES

1. Best, McRoberts, Lafleur, & Silver-Isenstadt, (1996). Discrimination of non-native consonant contrasts varying in perceptual assimilation to the listener's native phonological system. *Journal of the Acoustical Society of America*. 109(2):775-94. DOI: 10.1121/1.1332378
2. Jusczyk, P. W., Cutler, A., & Redanz, N. J. (1993). Infants' preference for the predominant stress patterns of English words. *Child Development*, 64(3), 675–687. <https://doi.org/10.2307/1131210>
3. Lado, Robert. 1957. *Linguistics Across Culture*. University of Michigan Press. \
4. Lado, Robert. 1964. *Language Teaching*. N. Y.: McGraw-Hill, Inc ..
5. PARK, H. K. (2004): “Applying Second Language Acquisition Theories to Teaching Interpretation to Undergraduate Students”, *Forum* 2-1, p. 105-123.
6. TRIM, J. (1975): *English Pronunciation Illustrated*, Cambridge University Press.
7. Shin, Jiyoung; Kiaer, Jieun; Cha, Jaeeun (2012). *The Sounds of Korean*. Cambridge: Cambridge University Press. ISBN 9781107672680.
8. Lee, Ki-Moon; Ramsey, S. Robert (2011). *A History of the Korean Language*. Cambridge: Cambridge University Press. p. 293. ISBN 9780521661898.

-
9. Brown, Lucien; Yeon, Jaehoon, eds. (2015). *The Handbook of Korean Linguistics*. West Sussex, UK: Wiley-Blackwell. ISBN 9781118370933.
 10. Lee, Eunhee; Madigan, Sean; Park, Mee-Jeong (October 30, 2015). *An Introduction to Korean Linguistics*.